



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 2-avgust

VI-104-97-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Kattaqo'rg'on tumani saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni tavsiya etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 11 va 19-moddalari, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan, VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 104-sessiyasi

QAROR QILADI :

1. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R.Djurayevning Kattaqo'rg'on tumani saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni tavsiya etish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashiga saylov o'tkazuvchi tuman saylov komissiyasining vakolati tugatilgan deb hisoblansin.

3. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi (N.Jo'rayev) komissiyaga tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda arxivga topshirish, mavjud adabiyotlar, tegishli hujjatlar hamda komissiya hisobidagi barcha buyumlarni yangi tashkil etiladigan Kattaqo'rg'on tumani saylov komissiyasiga dalolatnoma asosida topshirilishini ta'minlash yuklatilsin.

4. Kattaqo'rg'on tumani saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlar ro'yxati ilovaga muvofiq Samarqand viloyati hududiy saylov komissiyasiga tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi kotibiyati (M.Teshayev) Kattaqo'rg'on tumani saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlar haqidagi ma'lumotlarni Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 19-yuldagi 1352-sonli qaroriga muvofiq, "E-SAYLOV" axborot tizimi orqali hududiy saylov komissiyasiga yuborilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengash kotibiyati (M.Teshayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2024-yil 2-avgustdagi
VI-104-97-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo'rg'on tuman saylov komissiyasi a'zoliciga nomzodlar

t/r	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Egallab turgan lavozimi
1.	Jurayev Nabijon Qaxramonovich	Komissiya raisligiga
2.	Bobosherova Natalya Xudaynazarovna	Komissiya raisining o'rinbosarligiga
3.	Rashidov O'tkir Ataqulovich	Komissiya kotibligiga
4.	Boboyev Mansur Mavlonqulovich	Komissiya a'zoliciga
5.	Usmonova Zilola Xamroqulovna	Komissiya a'zoliciga
6.	Abdullayeva Muhayyo Erkinovna	Komissiya a'zoliciga
7.	Buronov Jamshid Nematovich	Komissiya a'zoliciga
8.	Vasiyev Nurali Rustamovich	Komissiya a'zoliciga
9.	Raxmatov Akmaljon Normurod o'g'li	Komissiya a'zoliciga
10.	Xo'jayeva Surayyo Abduqayumovna	Komissiya a'zoliciga
11.	Tog'ayev Ilxomjon Bo'ronovich	Komissiya a'zoliciga
12.	Ergashev Jamshid Ergashevich	Komissiya a'zoliciga
13.	Qobilova Zulayho Dilmurod qizi	Komissiya a'zoliciga
14.	Sanoqulova Shaxnoza Yusupovna	Komissiya a'zoliciga
15.	Boboyeva Shaxnoza Botir qizi	Komissiya a'zoliciga
16.	Toshpulotova Hayotxon Xolmamat qizi	Komissiya a'zoliciga
17.	Muminov Dilshod Murodullayevich	Komissiya a'zoliciga
18.	Bahorov Farhod Furqat o'g'li	Komissiya a'zoliciga
19.	Qodirova Xursantosh Odilovna	Komissiya a'zoliciga
20.	Xudoyqulov Vohid Yorqulovich	Komissiya a'zoliciga
21.	Raxmonova Nargiza Olimjonovna	Komissiya a'zoliciga